

TA'LIM TIZIMIDA NOGIRONLIGI BO'LGAN BOLALAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH VA ZO'RAVONLIK PROFILAKTIKASI

Ubaydullayeva Sohiba Abduxakimovna
Jizzax viloyati Paxtakor tumani MMTB ga
qarashli 9-umumta'lim maktabi psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada nogironligi bo'lgan bolalar huquqlarini himoya qilish hamda ular orasida zo'ravonlikning oldini olishning psixologik, pedagogik va ijtimoiy jihatlari yoritilgan. Nogironligi bo'lgan bolalar jamiyatning teng huquqli a'zolari sifatida alohida himoya va qo'llab-quvvatlashga muhtoj hisoblanadi. Maqolada huquqiy asoslar, zo'ravonlik turlari, xavf omillari va profilaktik mexanizmlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: nogironlik, bola huquqlari, zo'ravonlik, inklyuziv ta'lim, psixologik himoya, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, profilaktika, kamsitish, emotsional xavfsizlik, reabilitatsiya.

KIRISH

Nogironligi bo'lgan bolalar huquqlarini himoya qilish bugungi kunda ta'lim va ijtimoiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu toifadagi bolalar jismoniy, aqliy yoki sensor cheklovlarga ega bo'lishiga qaramay, ular teng huquqli ta'lim olish, rivojlanish va jamiyat hayotida ishtirok etish huquqiga egadirlar.

Zo'ravonlikning nogironligi bo'lgan bolalarga ta'siri yanada og'ir kechadi, chunki ular emotsional va ijtimoiy jihatdan himoyasizroq bo'lishi mumkin. Zo'ravonlik jismoniy, psixologik, iqtisodiy yoki kamsitish ko'rinishida namoyon bo'lib, bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini pasaytiradi va ijtimoiy moslashuvini qiyinlashtiradi. Bu muammoning asosiy sabablaridan biri jamiyatdagi stereotiplar va inklyuziv madaniyatning yetarli darajada shakllanmaganligidir. Ayrim hollarda tengdoshlar yoki kattalar tomonidan noto'g'ri munosabat, kamsitish yoki befarqlik kuzatiladi. Bu esa bolada ruhiy travmalar va ijtimoiy izolyatsiyani keltirib chiqarishi mumkin. Nogironligi bo'lgan bolalar huquqlarini himoya qilishda inklyuziv ta'lim tizimi muhim rol o'ynaydi. Inklyuziv ta'lim barcha bolalarning birgalikda o'qishini ta'minlab, ularda o'zaro hurmat, tenglik va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa zo'ravonlikning oldini olishda samarali ijtimoiy mexanizm hisoblanadi.

Maktab psixologining faoliyati ham bu jarayonda juda muhimdir. Psixolog bolalarning emotsional holatini kuzatadi, zo'ravonlik holatlarini erta aniqlaydi va individual psixologik yordam ko'rsatadi. Shuningdek, u ota-onalar va pedagoglar bilan hamkorlikda profilaktik ishlarni olib boradi. Profilaktika choralari orasida psixologik

treninglar, empatiyani rivojlantirish mashg'ulotlari, ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish va sinf jamoasida ijobiy psixologik muhit yaratish muhim o'rin tutadi. O'quvchilarda bag'rikenglik, hurmat va yordam ko'rsatish kabi qadriyatlarini rivojlantirish zo'ravonlikning kamayishiga xizmat qiladi. Shuningdek, huquqiy savodxonlikni oshirish ham muhim ahamiyatga ega. O'quvchilar, ota-onalar va pedagoglar nogironligi bo'lgan bolalarning huquqlari haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishi zarur. Bu esa kamsitish va zo'ravonlik holatlarining oldini olishga yordam beradi.

Barcha mamlakatlarda bolalarga nisbatan zo'ravonlikning barcha shakllarini qat'iy qat'iy taqiqlovchi qonun hujjatlarini qabul qilish hamda zo'ravonlik holatlarining oldini olish va ularga samarali javob berish mexanizmlarini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday huquqiy asoslar bolalarni himoya qilish tizimini mustahkamlashga va ularning xavfsiz muhitda rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Ruhiy kasalliklari, kognitiv yoki o'rganishida nuqsonlari bo'lgan bolalar (masalan, diqqat yetishmovchiligi va giperaktivlik sindromi, autizm spektri buzilishlari) zo'ravonlikka nisbatan ayniqsa zaif hisoblanadi. Umuman olganda, nogironligi bo'lgan bolalar nogironligi bo'lmagan tengdoshlariga qaraganda ikki baravar ko'proq zo'ravonlikka duch kelishadi. Buning asosiy sabablari sifatida ularning o'zini himoya qila olmasligi, og'zaki ifoda qilishdagi qiyinchiliklari va ijtimoiy himoya mexanizmlariga kamroq kirish imkoniga ega ekanligi ko'rsatiladi.

Mazkur holatlar davlat organlari, sog'liqni saqlash tizimi, ijtimoiy xizmatlar va ilmiy tadqiqotchilar tomonidan nogiron bolalarga nisbatan zo'ravonlikning barcha shakllari haqida xabardorlikni oshirish hamda profilaktika choralarini kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi. Shu maqsadda nogiron bolalar, ularning oilalari va ularni himoya qiluvchi tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish, shuningdek, ilmiy asoslangan ma'lumotlar bazasini kengaytirish muhimdir. Nogironligi bo'lgan bolalar zo'ravonlik yoki qo'rquv holatlarida yordam olishda qo'shimcha to'siqlarga duch keladilar. Jumladan: • ayrim bolalar zo'ravonlik nima ekanligini to'liq anglamasligi mumkin; • yordam so'rash ko'nikmasi yetarli darajada shakllanmagan bo'lishi mumkin; • bola o'z ehtiyojlarini qondirayotgan shaxsga bog'liq bo'lib qolishi sababli murojaat qilishda qiyinchilik sezadi; • mutaxassislar zo'ravonlik belgilarini to'g'ri aniqlash bo'yicha yetarli tayyorgarlikka ega bo'lmamasligi mumkin; • oilalar va bolalar xizmatlardan foydalanishda axborot yetishmasligi tufayli yolg'izlik hissini boshdan kechiradilar; • bolalar bilan ishlovchi mutaxassislarda nogiron bolalar bilan muloqot qilish bo'yicha maxsus ko'nikmalar yetarli bo'lmamasligi mumkin.

Nogironligi bo'lgan shaxslar ko'pincha transport, infratuzilma va aloqa vositalaridan foydalanishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Ijtimoiy ish xodimlari esa ushbu shaxslarning xavfsiz va barqaror hayot kechirishini ta'minlash, ularni zarur xizmatlar bilan ta'minlash hamda bandlikka jalb etishda muhim rol o'ynaydi. Bolalar

uchun esa ijtimoiy va ta'limiy faoliyatlar orqali bo'sh vaqtni mazmunli tashkil etish alohida ahamiyatga ega.

Ijtimoiy ishchilar nogironligi bo'lgan bolalarga nisbatan zo'ravonlik holatlarini aniqlash, ularni tegishli tashkilotlarga yetkazish va zarur yordamni tashkil etishda muhim vositachi hisoblanadi. Shuningdek, ular ko'rsatilgan xizmatlarning samaradorligini muntazam monitoring qilish va baholash orqali yordam tizimini takomillashtirib boradilar. Nogiron bolalar uchun yaratiladigan kafolatlar barcha bolalar uchun belgilangan huquqlar bilan teng bo'lishi zarur. Shu bilan birga, xavf omillarini kamaytirish, professional tayyorgarlikni oshirish hamda bolalar va oilalarning o'zini himoya qilish salohiyatini kuchaytirish alohida ahamiyatga ega. Nogiron bolalarga nisbatan zo'ravonlikka qarshi kurashish bo'yicha quyidagi chora-tadbirlar muhim hisoblanadi: — zo'ravonlikdan jabrlangan bolalarga o'z vaqtida ijtimoiy va psixologik yordam ko'rsatish; — aholi va o'quvchi-yoshlar o'rtasida nogironlik va inklyuziya bo'yicha tushuntirish ishlarini olib borish; — zo'ravonlik sodir etgan shaxslar bilan rehabilitatsion ishlarni tashkil etish; — ijtimoiy ish mutaxassislarining malakasini muntazam oshirib borish.

So'nggi yillarda dunyo miqyosida nogironligi bo'lgan shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga katta e'tibor qaratilayotganiga qaramay, ular hanuzgacha ta'lim, ish bilan ta'minlanish, ijtimoiy hayotda ishtirok etish va oilaviy hayot kabi sohalarda qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Ushbu to'siqlar nafaqat infratuzilmaning yetarli darajada moslashmaganligi, balki jamiyatdagi salbiy stereotiplar va stigma bilan ham bog'liqdir. Nogironlik — kasallik, shikastlanish yoki boshqa sabablar natijasida insonning mehnat qobiliyati to'liq yoki qisman yo'qolishi holatidir. O'zbekistonda nogironlik Tibbiy-mehnat ekspertiza komissiyasi (TMEK) tomonidan belgilanadi.

Nogironligi bo'lgan bolalar jamiyatning eng himoyaga muhtoj guruhlaridan biri hisoblanadi. Ular kundalik hayotda jismoniy, axborot va ijtimoiy to'siqlarga duch keladilar. Bu to'siqlar quyidagilarni o'z ichiga oladi: • jismoniy infratuzilmaning mos emasligi; • axborot va kommunikatsiya cheklovlari; • jamiyatdagi stereotiplar, kamsitish va salbiy munosabatlar.

Nogiron bolalarga nisbatan zo'ravonlik global muammo bo'lib, uning sabablari murakkab va ko'p omilli hisoblanadi. Asosiy omillardan biri jamiyatning nogironlikka bo'lgan munosabati va noto'g'ri stereotiplardir. Ayrim madaniy qarashlarda nogironlik noto'g'ri talqin qilinib, stigmatizatsiya va kamsitishga sabab bo'ladi. Tadqiqotlarga ko'ra, nogironligi bo'lgan bolalar boshqa bolalarga nisbatan jismoniy, jinsiy va ruhiy zo'ravonlikka 3–4 baravar ko'proq duch keladilar. Ayniqsa, aqliy yoki rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar orasida jinsiy zo'ravonlik xavfi yuqori darajada qayd etilgan. Ijtimoiy himoya tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi, stigma,

kamsitish va axborot yetishmasligi nogiron bolalarga nisbatan zo'ravonlik holatlarining yuqori darajada saqlanib qolishiga sabab bo'lmoqda.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, nogironligi bo'lgan bolalar huquqlarini himoya qilish va zo'ravonlik profilaktikasi kompleks yondashuvni talab etadi. Inklyuziv ta'limni rivojlantirish, psixologik qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, huquqiy madaniyatni oshirish hamda oila va maktab hamkorligini mustahkamlash ushbu muammoni bartaraf etishda muhim ahamiyatga ega. Jamiyatda tenglik, bag'rikenglik va insonparvarlik tamoyillari mustahkamlangan taqdirdagina nogironligi bo'lgan bolalar uchun xavfsiz va qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. G'oziyev E.G'. Yosh davrlari psixologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
2. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
3. Nishonova Z.T. Pedagogik psixologiya. – Toshkent, 2020.
4. Shoumarov G'.B. Bola psixologiyasi. – Toshkent, 2019.
5. UNICEF. Child Protection and Inclusion. – 2023.
6. World Health Organization. Disability and Health. – Geneva, 2022.
7. UNESCO. Inclusive Education Guidelines. – Paris, 2020.
8. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.